



**SURXONDARYO VILOYATIDA SUV RESURLARIDAN
FOYDALANISHDA SUG'ORISH USULIDAN FOYDALANISH TARIXI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11634716>

Jumanazarova Komila Sharofiddin qizi

erkin tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi sababli dunyoning xar bir joyida suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'orish suviga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan mavjud cheklangan suv resurslari tanqisligiga uchrab borilmoqdi, mavjud cheklangan suv resurslari va manbalarini tejab, extiyotkorona foydalanish bugungi kunning dolzarb muommoli vazifasidan biri xisoblanmoqda. Respublikamizda va viloyatda mavjud cheklangan suv resurslarini oqilona boshqarish va ulardan samarali foydalanishga oid ma'lumotlar tahlili, dala sharoitida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, zamonaviy suv tejamkor sug'orish texnologiyalarni keng qo'llash va ularni ishlab chiqarishga tadbiq qilish imkoniyatlari, muommolarni yechish bo'yicha taxlillar, ortiqcha suv yo'qotilishiga barxam berish viloyatda bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Kalit so'zlar

Suv resurslaridan foydalanish, global iqlim, sug'orish turi, resurstejamkor, innovatsion texnologiya.

АННОТАЦИЯ

Сегодня в связи с глобальным изменением климата, рациональным использованием водных ресурсов повсеместно растет потребность в оросительной воде. В связи с этим возникает дефицит имеющихся ограниченных водных ресурсов, а сохранение и рациональное использование имеющихся ограниченных водных ресурсов и ресурсов является одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. Анализ данных по рациональному управлению и эффективному использованию ограниченных водных ресурсов в стране и в регионе, повышению эффективности использования полевых вод, широкому использованию современных водосберегающих технологий орошения и применению их в производстве, решение проблем, устранение избыточных потерь воды – главная задача на сегодняшний день в регионе.

Ключевые слова



Использование водных ресурсов, глобальный климат, тип орошения, ресурсосберегающие, инновационные технологии.

ANNOTATION

Today, due to global climate change, the efficient use of water resources everywhere, the demand for irrigation water is growing. In this regard, there is a shortage of available limited water resources, and the conservation and careful use of available limited water resources and resources is one of the most pressing issues today. Analysis of data on the rational management and efficient use of limited water resources in the country and in the region, increasing the efficiency of field water use, the widespread use of modern water-saving irrigation technologies and their application in production, problem solving, elimination of excess water loss is the main task of today in the region.

Keywords

Use of water resources, global climate, type of irrigation, resource-saving, innovative technology.

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy dexqonchilikni texnik ekinlardan paxtachilik va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish ko'rsatgichlarini hozirda mavjud yer, suv resurlaridan foydalanishda inson omili ta'siri doirasida boshqa qo'l mehnati resurslaridan kam foydalanish, moddiy-texnikaviy resurslardan tejimli foydalanish samaradorligini oshiradi. Xolbuki, hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotining rentabelli va barqaror rivojlanib o'sishiga davlat tomonidan ishlab chiqarish sub'ektlariga real imkoniyatlar yaratilmoqda.


Suvdan foydalanish rejasi (SFR)ni tahlil qilish va o'zgartirishlar kiritish. Ba'zi bir yillarda fermer xo'jaliklariga beriladigan haqiqiy suv hajmi rejalashtirilgan suv hajmidan quyidagi sabablarga ko'ra keskin farq qilishi mumkin:

- qishloq xo'jalik ekinlarining turi va maydoni rejalashtirilganidan 10% dan ortiq hajmda o'zgarganda;
- ob-havoning o'zgarishi natijasida sug'orish suviga talabning keskin o'zgarishida;
- sug'orish manbaining sug'orish qobiliyati pasayganda;
- sug'orish tizimida ro'y bergan avariya natijasida suv bilan ta'minlashning uzoq vaqt mobaynida kamayganda.

Bu holatlarda xo'jalik ichki SFR siga o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Agarda bunday o'zgarishlar rejalashtirilgan suv sarf qiymati bilan haqiqiy suv sarfi qiymatlari o'rtasidagi farq 10% dan oshmasa, xo'jalikga beriladigan suv sarfi qayta hisoblanmaydi. Farq 10% dan oshsa, unda yuqori tashkilotlar bilan kelishilgan holda, SFR ga o'zgartirishlar kiritiladi va qayta tasdiqlanadi.

Suv tanqis bo'lishi kutilayotgan yillarda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining keskin kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan ekspluatatsion tadbirlar yordamida yechish rejalashtirilishi ko'zda tutiladi, ya'ni sug'orish me'yorlarini 300-400 m³/ga ga kamaytirish va suv tanqisligi boshlangunga qadar yuqori sug'orish me'yorlari bilan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orib tuproqda ko'proq nam to'plash ko'zda tutiladi. Sug'oriladigan yerlar viloyatning bebaho ne'mati. Viloyatning sug'oriladigan yerlari va suv resurslari nihoyatda cheklanganligi bilan boshqa o'lkalardan farq qiladi.

Viloyatda suv tejavchi texnologiyalarning qo'llanilishi egatlarga plyonka to'shab sug'orish 2000 yil 680 ga bo'lgan bo'lsa, 2015 yil 1423 ga yetkazildi, shu davrga nisbatan 2,1 barobarga oshirildi. Egiluvchan quvurlar orqali sug'orish 2000 yil 700 ga bo'lgan bo'lsa, 2015 yil 6637 ga yetkazildi, shu davrga nisbatan 9,4 barobarga oshirildi. Bu o'z navbatida viloyatda suv tejavchi texnologiyalarning keng joriy qilinayotganidan dalolat.



1-rasm. Viloyatda ekinlarni sug'orishda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etilishi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun turli xil suv tejamkor sug'orish texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.


Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, tuproq unumdorligini saqlash, mavjud yer va suv resurslaridan, innovatsion sug'orish texnika - texnologiyalarining tizimlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, ekinlarni parvarishlashning ilmiy asoslangan, takomillashgan, sug'orish texnika - texnologiyalarini joriy etish, yuqori va sifatli mahsulot yetishtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Jarqo'rg'on tumani viloyatning janubiy-sharqida joylashgan bo'lib, tumanning umumiy yer maydoni 27628 gektarni tashkil etadi. Surxondaryo viloyati asosan 326000 ga sug'oriladigan yerlarini tashkil qiladi, shu jumladan tekisliklar, tog' oldi tekisliklarida joylashgan bo'lib, bu tekisliklarning nishabi Qashqadaryo viloyatiga qarab pasayib boradi. Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan, viloyatning



shimoldan-janubgacha uzunligi 180-200 km, g'arbdan-sharqqgacha 70-140 km ni tashkil etadi. Surxon daryosi To'polong va Qoratog' daryolarining quyilishidan paydo bo'ladi. Unga o'ng tomondan Sangardak va Halqajar irmoqlari qo'shiladi.

Boshqa irmoqlar soylardan iborat bo'lib, ulardan fakat yog'ingarchilik sel va suv toshqinlari vaqtida suv Surxondaryoga kelib turadi. Ularning eng yiriklari Sangardaksoy, Oqqapchig'ay, Bandixon soylar. To'polong va Qoratog' daryolari qor va muzliklardan to'yinadigan daryolar turiga kiradi. Surxondaryo suvi asosan, shu ikki daryo suvidan iborat. Fevral oyining oxirida suv sarfi sezilarli ravishda tog' bag'irlarida qorning erishi oqibatida ko'payadi. Sangardak daryosi qordan to'yinadigan daryolar, Halqajar daryosi qor, yomg'irdan to'yinadigan daryolar turiga kiradi va shu sababdan bu daryodan ko'plab sel va suv toshqinlari o'tib turadi. Yil mobaynida manbalardan olinadigan suv miqdori suv olish rejasiga to'g'ri kelmaydi. Mart-iyun oylariga yillik suv miqdori 71%, iyul - sentabr 18%, oktabr-fevral davrida 11% ga to'g'ri keladi. Viloyat hududi quyidagi tizimlardan suv ichadi: 1-Amudaryo, 2-Surxondaryo, 3-To'polong, 4-Sangardak, 5-Qoratog', 6-DYuB, 7-Xo'jaipok, 8-Kofirnixon, 9-Dashnobod, 10-Sheroboddaryo, 11-Buloqlar.

Tupolong-Qoratog', Surxon-Sherobod, Amu-Zang irrigatsiya tizimlari tug'onli suv olish, Amudaryo esa mashinali suv olish imkoniyatiga ega. Jami bo'lib boshqarma balansida 101 ta nasos stansiyalar mavjud bo'lib, ulardan yiriklari Amu-Zang - I, Amu-Zang - II, Bobotog', Jayxun, ShNS va Kattakum nasos stansiyalari. Suvdan samarali va unumli foydalanish va taqsimlash maqsadida viloyat bo'yicha Uchqzil, Oqtepa, Janubiy-Surxon, To'polong suv omborlari va Jarqo'rg'on, To'polong, Sherobod gidrouzellari xizmat qilishi tashkillashtirilgan. Viloyatda g'o'za ekini uchun tumanlar kesimida tomchilatib sug'orish usulidan keng foydalanilmoqda, lekin bu ko'rsatgich tumanning sug'oriladigan umumiy yer maydonga nisbatan juda kichik ko'rsatgichda ekanligini 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Viloyatda suv resurslaridan foydalanishda g'o'zani tomchilatib sug'orish usulini joriy qilinishi.

Xo'jalik kanallarining umumiy uzunligi 1532,3 km ni, shu jumladan beton qismi 720,0 km ni yoki 47% i tashkil etadi. Viloyatda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va zax suvlarini qochirish maqsadida viloyat bo'yicha xo'jaliklararo zovurlarning umumiy uzunligi 1116,2 km, xo'jalik ichki zovurlari 8966,3 km ni va yopiq-yotiq zovurlar 4279,8 km dan iborat. 2020 yilning 1 yanvar holatiga mavjud sug'oriladigan yer maydoni 326000 ga shundan 223600 ga maydon nasos stansiyalar orqali sug'orildi.

2020 yil hosili uchun 74078 ga maydonga 234500 t ga paxta xom ashyosi yetishtirish bo'yicha 1889 ta fermer xo'jaliklari bilan paxta tozalash hamda paxta to'qimachilik sanoati korxonalari o'rtasida kontraktatsiya shartnomalari tuzilib, amalda 221 ming 611 t paxta xom ashyosi yetishtirilib, shartnoma 94,5% ga bajarildi. 2017 yil mobaynida suv manbalaridan o'rnatilgan 3577,6 mln m³, amalda 4223,4 mln m³ suv olingan bo'lib, limitga nisbatan 118% ni tashkil etdi. Shu jumladan Amudaryodan 1209,3 mln m³ limit ajratilgan bo'lib, amalda 1292,4 mln m³ miqdorida suv olingan limitga nisbatan 106,9 % tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бутаяров А.Т. «Аму - Сурхон» ИТХБ худудидаги фермер хўжаликлариди сувдан фойдаланишни такомиллаштириш. // "AGROILM" jurnali maxsus son 4.(60). -Тошкент, 2019. -Б. 79 - 81.

2. Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С., Серикбаева Э.Б., М.Т. Муҳаммадиева, Суғорма дехқончиликда сувдан тежамли фойдаланиш технологияси.



“Суғорма дехқончиликда сув ва ер ресурслардан оқилтона фойдаланишнинг экологик муаммолари” мавзусидаги Республика илмий - амалий анжумани I-жилд. -Тошкент. 2017 йил, 24-25-ноябрь. -Б. 109-111.

3. Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С. Аму-Сурхон ИТХБ худудидаги фермер хўжаликларидан сувдан фойдаланишни такомиллаштириш. TerDU ilmiy xabarnomasi ilmiy - uslubiy jurnal. №1.(01) Сентябрь. -Термиз, 2019. -Б. 16-19.

4. Бутаяров А.Т. Аму-Сурхон ирригация тизим ҳавза бошқармасида сувдан фойдаланиш ҳолати. Международная конференция инновационное развитие науки и образования. Ноябрь 2020 г. «Сборник научных трудов Павлодарь, Казахстан» Ноябрь, 2020 г. -Ст. 132-139.

5. Postel, S. Drip Irrigation Expanding Worldwide [Электронный ресурс] // NEWSWATCH.NATIONALGEOGRAPHIC.COM: National Geographic. URL: <http://newswatch.nationalgeographic.com/2012/06/25/drip-irrigation-expandingworldwide/> (дата обращения: 06.08.2012). -Рр. 171.